



**XOTIN-QIZLAR HUQUQLARIGA OID XALQARO-HUQUQIY
STANDARTLARNI MILLIY QONUNCHILIKKA IMPLEMENTATSIYA
QILISHNING DOLZARB MASALALARI**

Eshmatova Sevinch Sherzod qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti Xalqaro huquq
va inson huquqlar fakulteti magistratura talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada xotin-qizlar huquqlarining rivojlanish bosqichlar, ularning Xalqaro huquqda tutgan o`rni, gender tenglik va ayollar huquqlarining Markaziy Osiyo hamda O`zbekistondagi ahamiyati, mavjud muammolar hamda muqobil yechimlar umumiy tarzda muhokama qilinadi. Shu bilan birgalikda, xotin-qizlar huquqlariga oid xalqaro-huquqiy standartlar turlari va ularni yurtimiz qonunchiligiga implementatsiya qilishning dolzarb masalalari mohiyati haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so`zlar:** Xotin-qizlar huquqlari, xalqaro-huquqiy standartlar, implementatsiya qilish, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Xalqaro konvensiya, Xalqaro pakt, inson huquqlari, gender tenglik, ratifikatsiya, victim-blaming, zo`ravonlik.

Kirish. O`zbekiston Respublikasi uchun xotin-qizlar huquqlarini xalqaro huquqiy standartlarga asoslangan tarzda milliy qonunchilikka implementatsiya qilish zaruriyati bir qator ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy omillarga bog`liq. Ayollarning huquqlari jamiyatdagi tenglik, barqarorlik va taraqqiyot uchun asosiy shartdir. Bunda xalqaro huquqiy me'yorlarni milliy qonunlarga kiritishning muhimligi bir nechta sabablarga ko`ra asoslanadi:



Birinchidan, gender tengligini ta'minlash va diskriminatsiyani yo'qotish. O'zbekistonning xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish bo'yicha bir nechta muhim Xalqaro konvensiya va paktlarni ratifikatsiya qilgan bo'lsada, ushbu hujjatlarni amalga oshirish mexanizmini takomillashtirishi zarur. Hamda bu orqali ayollarga nisbatan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy sohalarida diskriminatsiyani kamaytirish va gender tengligini ta'minlash mumkin.

Ikkinchidan, BMT tomonidan belgilangan majburiyatlarni bajarish. BMTga a'zo mamlakat sifatida xalqaro huquqiy hujjatlarni ratifikatsiya qilish va xalqaro majburiyatlarni bajarish davlatning xalqaro miqyosdagi obro'si va imidjini yaxshilaydi.

Uchinchidan, jamiyatdagi adolat va barqarorlikni ta'minlash. Ya'ni xotin-qizlar huquqlarining to'liq amalga oshirilishi, ayollarning iqtisodiy va siyosiy faoliyatda ishtirokini oshirish, jamiyatda adolat va barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Gender tengligi iqtisodiy o'sishni, jamiyatning barqarorligini va ijtimoiy farovonlikni yaxshilashga yordam beradi.

Shuningdek, ayollarni jamiyatning barcha jabhalariga kengroq jalb qilish ham ularning mehnat bozorida va siyosatda faol qatnashish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu esa faqat xotin-qizlar uchun emas, balki butun jamiyat uchun foydalidir.

O'zbekiston o'zining qonunlarida va siyosatida xotin-qizlar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qator islohotlarni amalga oshirgan bo'lsa-da, hali ham bir qator muammolar mavjud. Mazkur muammolarni va ularga mos muqobil yechimlarni birma-bir tahlil qilamiz.

Tarixdan ma'lumki, dunyo miqyosida xotin-qizlar huquqlarining rivojlanish bosqichlari turli jarayonlar va ijtimoiy o'zgarishlar bilan bog'liq. Xotin-qizlar huquqlari, xususan, tenglik va adolat tamoyillariga asoslanadi, va ular har doim jamiyatdagi gender



rollarini, madaniy an'analarni va siyosiy qarashlarni o'zgartirishga bog'liq bo'lgan. Dastlab, xotin-qizlar huquqlarining rivojlanish bosqichlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak:

1-bosqich: Xotin-qizlar huquqlarining yetishmasligi

Ilk tarixiy davrlarda, xotin-qizlar ko'plab jamiyatlarda erkinliklardan mahrum bo'lgan, ular asosan oilaviy va uy-joy ishlari bilan cheklangan. Ko'plab madaniyatlarda, masalan, qadimgi Yunoniston va Rimda, ayollar huquqlari juda cheklangan va ular ko'pincha o'z oilalaridan tashqarida faoliyat yurita olishmagan. Xotin-qizlar uchun ta'lim olish va siyosiy jarayonlarda ishtirok etish huquqi mavjud emas edi.

2-bosqich: Xotin-qizlar huquqlariga birinchi talablar (XIX asr)

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, ayollar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan birinchi harakatlar boshlandi. Bu davrda, ayniqsa, Yevropa va Shimoliy Amerikada ayollar huquqlarini himoya qilish va ularga siyosiy, iqtisodiy huquqlar berish talab qilindi.

1848-yilgi Seneka Falls konferensiyasi (AQSh) shular jumlasidandir. Bu konferensiyada ayollar ovoz berish huquqi va ta'lim olish huquqi kabi asosiy huquqlarni talab qilishdi. Bu voqea odatda "xotin-qizlar huquqlari harakati"ning boshlanishi sifatida qabul qilinadi.¹

Ayollarning saylov huquqi 1893-yilda Yangi Zelandiyada birinchi bo'lib joriy etilgan bo'lsa, keyinchalik, AQSh (1920), Buyuk Britaniya (1928), Fransiya (1944), Shvetsiya (1919) kabi ko'plab davlatlar ayollarga saylov huquqini berdi.

3-bosqich: Xotin-qizlar huquqlarining yanada rivojlanishi (XX asr)

¹ <https://www.history.com/topics/womens-history/seneca-falls-convention#what-was-the-seneca-falls-convention>



Mazkur davrda ayollar huquqlari rivojlanishi yanada kengayib, ko'plab ijtimoiy, siyosiy, sotsiologik sohadagi islohotlar hamda ta'lim va kasbiy sohada tenglikka bo'lgan harakatlar amalga oshirildi.

4-bosqich: BMT va xalqaro huquqlar

Xalqaro maydonda xotin-qizlar huquqlarini himoya qilishning asosiy bosqichi 1945-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tashkil topishi bilan boshlangan hamda uning doirasida ayollar huquqlarini himoya qilish bo'yicha turli konvensiyalar va hujjatlar ishlab chiqilgan.

Xususan, BMTning Ayollarga qarshi zo'ravonlikni tugatish to'g'risidagi Deklaratsiyasi (1993)² va Xalqaro ayollarni kamsitishning barcha shakllariga qarshi konvensiyasi shular jumlasidandir (CEDAW, 1979)³.

1995-yil Pekin konferensiyasi orqali ham ayollarning huquqlari va tengligi bo'yicha dunyo bo'ylab katta kelishuvga erishilgan.⁴ Pekin deklaratsiyasi va harakatlar dasturi ayollarni har jihatdan rivojlantirishga qaratilgan yondashuvni ifodalagan.

Shuningdek, keyingi bosqich aynan bugun rivojlanmoqda. Shu vaqtgacha ko'plab davlatlarda ayollarga berilayotgan imkoniyatlar va huquqlar tengligini ta'minlash yuzasidan turli xil islohotlar amalga oshirib kelinayotgani hech kimga sir emas. Biroq, bu jarayon hali to'liq tugallanmadi. Gender tengligi va huquqlarni yanada kuchaytirish uchun global miqyosda davom etayotgan kurash va islohotlar jamiyatning barcha sohalarida o'zgarishlarni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

² https://www.un.org/en/genocideprevention/documents/atrocity-crimes/Doc.21_declaration%20elimination%20vaw.pdf

³ <https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/convention-elimination-all-forms-discrimination-against-women>

⁴ <https://www.un.org/womenwatch/daw/beijing/platform/declar.htm>



Shu bilan birgalikda, xotin-qizlar huquqlarining Markaziy Osiyodagi tutgan o`rni haqida ham so`z yuritadigan bo`lsak, ushbu mintaqaning ayrim hududlarida ayollar huquqlari ba`zi holatlarda cheklanganligi va ularga nisbatan zo`ravonlikning mavjudligi mazkur sohada turli islohotlarni amalga oshirish va jamiyat huquqiy ongini oshirish naqadar muhimligini ko`rsatadi. Ma`lumki, aholi orasida ayollar ko'plab an'anaviy va diniy qadriyatlar bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy rollarga ega bo'lib, ularning huquqlari cheklanish holatlari qisman mavjud. Biroq, ayollarni teng huquqlarga ega qilish jamiyatni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Chunki ular ham insoniyatning bir bo`lagi sifatida turli sohalarda faol qatnashadilar hamda farovonlikka o`z hissasini qo`sha olishadi.

Shuningdek, yaqin yillar ichida O`zbekiston Respublikasida gender tenglik, xususan ayollarning huquqlarini ta`minlash va teng jamiyat yaratish maqsadida turli xil islohotlar amalga oshirilmoqda. Joriy yilning 13-14-may kunlari Samarqand shahrida bo`lib o`tgan Osiyo xotin-qizlari xalqaro forumi ham fikrimiz isbotidir. Dunyoda ilk bor deya ta`rif berilayotgan bu anjuman, prezident Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasi 78-sessiyasida bergan taklifi asosida bo`lib o`tdi. Xorijlik mehmonlar bilan gavjum bo`lgan forum, tashkilotchilarning ma`lum qilishicha, 30 dan ortiq davlatdan 400 ga yaqin faol ayollarni o`zida jamlagan. Forumda qatnashgan O`zbekiston Oliy Majlis Senati raisi Tanzila Norboyevaning ta`kidlashicha, *“Jahonda siyosiy va iqtisodiy beqarorlik davom etar, turli nizolar, yangi xatarlarning xavfi yuqori darajada saqlanar ekan, xotin qizlarning davlat boshqaruvida, shuningdek, har jabhada faol bo`lishi zamon talabi bo`lib qolaveradi”*. Yuqori palata raisi, shuningdek, bugun O`zbekiston *“qiz bolani o`qitmasa ham bo`laveradi”*, *“qiz bola uyda o`tirishi kerak”*, degan eski stereotiplarga to`la barham berishga urinayotganini ham qo`shimcha qildi.

Xalqaro forumning asosiy mehmon va spikerlaridan hisoblangan BMTning Ayollar ishlari bo'yicha ijrochi direktori Sima Baxusning fikricha, *ayollar qanchalik ulug`lanmasin, ularning iqtisodiyotdagi teng ishtiroki hali ta`minlanmagan. Masalan, butun dunyo bo`ylab,*



2,7 milliarddan ortiq ayollar qonuniy ravishda erkaklar bilan bir xil mezonlar asosida ish tanlay olmaydi. Ish bilan band ayollar erkaklarga qaraganda oʻrtacha 20 foiz kam maosh oladi.⁵

Markaziy Osiyo ayollar muloqoti koordinatori Aynura Usupbekovanning soʻzlariga koʻra esa, “Koʻpdan koʻp deklaratsiya va rezolyutsiyalarni imzolayverish mumkin, lekin eng asosiysi – hujjatlar amalda ishlashi kerak. Bundan tashqari, u Markaziy Osiyoda milliy mentalitet gender tengligini taʼminlash siyosatiga xalaqit berishini qayd etdi. Bunda yechim esa xalqaro huquq normalaridir. Yaʼni bu davlatlar jahon hamjamiyati tan olgan hujjatlarni ratifikatsiya qilar ekan, undagi normalarni ham bajarishga majbur.

Mintaqaning har bir davlatida gender tengligiga oid qonunchilik ideal tartibga solingan boʻlishi mumkin: ijtimoiy yordamlar bor, ayollar uchun maxsus kvotalar bor, ayollarni iqtisodiyotga, siyosatga tortish – hammasi mahalliy qonunchilikdan oʻrin olgan, lekin men katta bir minusni aytmoqchiman. Eng nozik nuqta – [muammo borligini/jiddiyligini] tan olmaslik yoki toʻgʻri tushunmaslik.

Markaziy Osiyo uchun gender tengligini taʼminlash deganda faqat ayollar koʻz oldimizga kelaveradi. Aslida esa bu faqat ayollarning muammosi emas, jamiyatning, rahbarlarning, siyosat maydonidagilarniki ham. Agar ular buni tushunsa, vaziyat yaxshilanishi osonlashadi, chunki qonunchilik va budjet masalalarida asosiy rol ularda qolyapti”.

Oʻzbekiston Respublikasida xotin-qizlar huquqlariga oid xalqaro huquqiy standartlarni milliy qonunchiligiga joriy etish dolzarb masala boʻlib, mamlakatning gender tengligi, ayollarga nisbatan zoʻravonlikni oldini olish va umumiy ijtimoiy barqarorlikni taʼminlash sohasidagi rivojlanishini qoʻllab-quvvatlaydi. Xalqaro huquqiy standartlarni milliy qonunchilikka kiritish uchun amalga oshirilgan islohotlar, jarayonlar va qarorlar

⁵ <https://kun.uz/news/2024/05/14/ayollar-huquqlari-faoli-muammo-qonunlarda-emas-muammoni-tan-olmaslikda>



tizimi mavjud. Shu bilan birga, ushbu jarayonda bir qator muammolar va qiyinchiliklar mavjud. Quyida bu masalalarning dolzarbligi, mavjud holat va kelajakdagi istiqbollarni ko'rib chiqamiz.

Dastlab, O'zbekiston ayollarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qaysi xalqaro huquqiy hujjatlarni ratifikatsiya qilganligiga to'xtaladigan bo'lsak, ularga quyidagi huquqiy asoslar kiradi:

- **BMTning Ayollarga qarshi diskriminatsiyaning barcha shakllariga qarshi konvensiyasi (CEDAW).**⁶

1995-yil O'zbekiston ushbu konvensiyani ratifikatsiya qilgan va bunga mos ravishda milliy qonunchiligini ishlab chiqish majburiyatini olgan. CEDAW konvensiyasi ayollarni diskriminatsiyadan himoya qilish, ularning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarini ta'minlashni talab qiladi.

- **BMTning Xalqaro fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi pakti.**⁷

Ushbu pakt ham 1995-yilda ratifikatsiya qilinib, mamlakatda insonlarning fuqarolik va siyosiy huquqlarni ta'minlash bo'yicha muhim hujjat hisoblanadi.

- **BMTning Xalqaro iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi pakti.**⁸
Ayollarni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalarda teng huquqlarga ega bo'lishini ta'minlashga doir majburiyatlarni o'z ichiga oladi.

- Shuningdek, O'zbekiston ayollarga nisbatan zo'ravonlikni oldini olish va unga qarshi kurashish uchun **BMTning Ayollarga nisbatan zo'ravonlikni tugatish to'g'risidagi Deklaratsiyasini** ham ratifikatsiya qilgan.⁹

⁶ <https://www.un.org/womenwatch/daw/cedaw/>

⁷ <https://www.ohchr.org/sites/default/files/Documents/ProfessionalInterest/ccpr.pdf>

⁸ <https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/international-covenant-economic-social-and-cultural-rights>

⁹ https://www.un.org/ga/search/view_doc.asp?symbol=A/RES/48/104



Xalqaro standartlarning milliy qonunchilikka implementatsiyasini tahlil qiladigan bo'lsak, Respublikamiz huquq tizimida xotin-qizlar huquqlarini himoya qilishda bir qator ijobiy o'zgarishlarni amalga oshirdi va mazkur islohotlar hali hamon davom ettirilmoqda.

Xususan, 2019-yilda qabul qilingan "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonun¹⁰ hamda 2023-yildagi "Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 829-sonli O'zbekiston Respublikasi Qonuni ayollar huquqlarining nafaqat jamiyatda, balki oilalarda mustahkamlanishida muhim qadamlardan biri bo'ldi.¹¹

Bundan tashqari, Xalqaro mehnat tashkilotining Ishlayotgan erkaklar va ayollar uchun teng munosabatlar va teng imkoniyatlar: oilaviy majburiyatlarga ega xodimlar to'g'risidagi 156-sonli Konvensiyasining (Jeneva, 1981-yil 23-iyun) 2024-yil 19-iyunda ratifikatsiya qilinishi ham ayollarga qaratilayotgan muhim e'tibor sifatida hisoblashimiz mumkin.¹²

Shuningdek, joriy yilning birinchi qismida mamlakatimizda ayollar mehnatidan muayyan soha yoki kasblarda foydalanish bo'yicha taqiqlar bekor qilinishi munosabati bilan Vazirlar Mahkamasining "Avtomototransport vositalari va shahar elektr transporti vositalari haydovchilarini tayyorlash hamda qayta tayyorlash bo'yicha nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatish faoliyatini litsenziyalash tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 31-maydagi 408-son qaroriga o'zgartirish kiritildi.¹³ Ya'ni "C" yoki "D" toifalariga oid avtotransport vositalarini boshqarish uchun ayollarga yuk

¹⁰ <https://lex.uz/docs/-4494709>

¹¹ <https://www.lex.uz/uz/docs/-6430272>

¹² <https://www.lex.uz/uz/docs/-6974750?query=ayollar#sr-1>

¹³ <https://www.lex.uz/uz/docs/-6795871?query=ayollar#sr-1>



avtomobillarini yoki avtobuslarni boshqarishdagi O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi hamda O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi tomonidan belgilangan muayyan cheklashlarning olib tashlanishi¹⁴ hamda ayollarni "BC" va "D" toifalariga tayyorlashni tashkil qilishda yuk avtomobillarining yuk ko'tarishi 2,5 t dan va avtobuslarning yo'lovchilar tashish uchun ruxsat etilgan soni 14 kishidan oshmasligi kerakligi to'g'risidagi qoidalarning bekor bo'lishi xalqaro huquqiy standartlarning milliy qonunchilikda aks etilayotganligidan darak beradi.¹⁵

Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev rahbarligi va qo'llab-quvvatlovi ostida xotin-qizlarga yaratilayotgan imkoniyatlar ularning turmush tarzi va erkin yashashga bo'lgan huquqlarini mustahkamlashda muhim o'rin tutmoqda. Ammo ayollarning hayotiga ta'sir etayotgan muammolar, afsuski, hali ham mavjud.

Bulardan biri ayollarga nisbatan oilalarda qilinayotgan turli ko'rinishdagi zo'ravonliklardir. Hozirda O'zbekiston qonunchiligida oilaviy (maishiy) zo'ravonlik uchun jazo tayinlangan bo'lishiga qaramasdan, mamlakatimizdagi sud tizimi ayolni bir shaxs sifatida emas, balki abyuzer erkakni jazolatishdan ko'ra, uni kechirish to'g'ri yo'l ekanligi kabi munosabatda bo'lish holatlari ham kuzatilishi mumkin.

Ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda har yili huquq-tartibot organlariga 40 mingga yaqin gender zo'ravonlik holatlari xabar qilinadi va jabrlanganlarning deyarli barchasi ayollardir. Ayollarga nisbatan zo'ravonlikning 85 foizi uyda sodir bo'ladi. Masalan, 2023-yilning birinchi yetti oyida 21 871 nafar ayol himoya ordenlarini olish uchun murojaat qilgan; 84,7 foizi asosan yaqin oila a'zolari, er va qaynona himoyasiga muhtoj edi.

Xuddi shunday nisbat haqida avvalroq Senat raisi Tanzila Norboyeva ham xabar bergan edi. Uning ta'kidlashicha, 2021-2022 yillar davomida ayollar va qizlarga nisbatan

¹⁴ <https://www.lex.uz/uz/docs/-3765833?ONDATE=06.06.2018%2000#-3767656>

¹⁵ <https://www.lex.uz/uz/docs/-3765833?ONDATE=06.06.2018%2000#-3768063>



tazyiq va zo‘ravonlik holatlari bo‘yicha 72 mingdan ortiq murojaat Huquqni muhofaza qilish organlariga tushgan. Ularning 61 000 dan ortig‘i yoki taxminan 85 foizi uyda sodir bo‘lgan.

Toshkent davlat yuridik universitetidan O‘tkirbek Xolmirzayev va Zayniddin Shamsidinov o‘zlarining tadqiqotida 2023-yilning may oyidan dekabrigacha bo‘lgan oiladagi zo‘ravonlik holatlari bo‘yicha ma‘muriy va jinoiy ishlar bo‘yicha 10 462 ta sud qarorlarini o‘rganib, eski muammoning yangi qirralariga oydinlik kiritdi.

Tadqiqotdan olingan qiziqarli xulosalardan biri shundan iboratki, sudga yetib kelgan oilaviy zo‘ravonlik holatlarining aksariyati jismoniy zo‘ravonlik bilan bog‘liq. O‘rganilgan 10 091 ta ma‘muriy oiladagi zo‘ravonlik holatlarining 53 foizi “tanga yengil shikast yetkazilgan jismoniy zo‘ravonlik bilan bog‘liq”.

Ikkila tadqiqotchining ta’kidlashicha, bu ayollar (va rasmiylar) ko‘pincha og‘zaki yoki psixologik zo‘ravonlikni zo‘ravonlik sifatida qabul qilmasliklari yoki "bu ularning erlari bilan munosabatlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin" ekanligi hamda bu kabi holatlarni sudga berishga arzigulik deb hisoblamasliklari keltirilgan. Shuningdek, tadqiqotchilar Xolmirzayev va Shamsidinovning aniqlashicha, O‘zbekiston sud tizimida “victim-blaming”, ya’ni jabrlanuvchini ayblash holatlari ham keng tarqalgan. “Andijon tumanida sifat jihatidan tahlil qilish uchun tasodifiy tanlab olingan 10 ta holatdan 6 tasida jabrlanuvchi ayollar javobgarlikka tortiladi”, — ta’kidladi mualliflar. Shunga o‘xshash holatlar boshqa hududlarda ham uchraydi.



Protection orders issued to women in Uzbekistan in 2020-2023

by law enforcement bodies and their stated causes

	2020	2021	2022 (Jan-Sept)	2023 (Jan-July)
Total	14,774	39,343	32,783	21,871
Psychological abuse	6,281 (42.5%)	18,777 (47.7%)	18,000+ (54.9%)	N/A
Physical abuse	6,836 (46.2%)	13,658 (34.7%)	9,155 (27.9%)	N/A
Harassment	1,480 (10%)	7,174 (18.2%)	6,000+ (18.3%)	N/A
Financial/Economic abuse	121(0.8%)	234 (0.5%)	340 (1.03%)	N/A
Sexual violence	56 (0.3%)	106 (0.2%)	68 (0.2%)	N/A

Source: Uzbek media (Daryo.uz, Gazeta.uz)

Oilaviy zo'ravonlik holatlarini ko'rib chiqadigan sudyalarning aksariyati erkaklar ekanligi qisman tushuntirish beradi. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, oiladagi zo'ravonlik holatlarini ko'rib chiqqan 347 nafar sudyadan faqat 14 nafari (4 foiz) ayollardir. 2022 yil holatiga ko'ra, mamlakat bo'ylab 1278 nafar sudya ishlaydi va ularning atigi 174 nafari (13,6 foiz) ayollardir. So'nggi yillarda ayol sudyalar soni ortib bormoqda. Masalan, 2021 yilda atigi 158 nafar ayol sudya bor edi.

O'zbekistonda ayollar va qizlarga nisbatan zo'ravonlik, ayniqsa, oilada zo'ravonlikka keyingi paytlarda keng e'tibor qaratilmoqda. 2018-2019 yillarga qadar jamoatchilik oiladagi zo'ravonlikni "oilaviy" muammo sifatida keng ko'lamda tilga oladi. Himoya farmoyishlari, gender asosidagi zo'ravonlik qurbonlari uchun reabilitatsiya boshpanalari, oiladagi



zoʻravonlikni jinoiylashtirish kabi yangi chora-tadbirlar majmuini joriy etish ayollar xavfsizligini kafolatlashning dastlabki qadamidir.¹⁶

Shuningdek, jamiyatimizda qotib qolgan stereotiplar, huquqbuzarlik yoki jinoyat sodir etilganda ayollarning oʻzi aybdor sifatida koʻrsatilishi, oilalardagi jinoyatlarning latentligicha qolib ketishi, qizlarning turmushga majburlash kabi holatlar hali hamon eng ogʻriqli nuqta boʻlib qolmoqda. Amaliyotim davomida oʻzim guvoh boʻlayotgan holatlar, xususan, er-xotin ajrimida alimentlarning oʻz vaqtida toʻlanmasligi, sud qarori ijrosidagi noaniqliklar va voyaga yetgan yoki yetmagan qizlarning ota-onasi tomonidan nikohga majburlanishi dilni xira qiladi. Afsuski, bir tomondan oila shaʼnini oʻylab, oʻz huquqlarini talab qila olmayotgan ayollar oramizdan minglab topiladi.

Mazkur muammoga yechim sifatida quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

- Zoʻravonlikka qarshi maxsus qonunlarni kuchaytirish va unga qarshi samarali mexanizmlar joriy etish.
- Tarbiyaviy ishlanmalar va ijtimoiy madaniyatni oʻzgartirish: Zoʻravonlikni oldini olish va bunga nisbatan jamiyatdagi ijtimoiy qarashlarni oʻzgartirish uchun targʻibot ishlari va taʼlim tizimini takomillashtirish zarur.
- Xalqaro huquqni milliy qonunlarga integratsiya qilish: CEDAW va boshqa hujjatlarni yanada chuqurroq amalga oshirish va ayollarga nisbatan zoʻravonlikka qarshi kurashishda xalqaro tajribalarni oʻrganish va qoʻllash.
- Eng muhimi, jamiyatda qotib qolgan zararli stereotiplarni asta-sekinlik bilan yoʻqotish, yoshlar ongini tenglik va hurmat ruhida tarbiya qilish: Har bir shaxs maʼlum bir oilada ulgʻayadi va ushbu insonlar tarbiyasida andoza oladi. Abyuzer shaxslarning farzandi ham katta ehtimol bilan, zoʻravon boʻlib ulgʻayadi. Shuning uchun har bir qatlamda ayollarning huquqiy va ilmiy madaniyatini oshirish,

¹⁶ [Women as Wives: How Uzbekistan's Justice System Fails to Serve Women – The Diplomat](#)



zo`ravonlikka toqatsizlik ruhida tarbiya toptirish, psixologiya to`g`risidagi bilimlarning o`smirlarga yetkazilishi, o`z-o`zini himoya qilish qoidalari o`rgatilishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, O`zbekistonning xotin-qizlar huquqlarini xalqaro huquqiy standartlar bilan moslashtirish, nafaqat ayollarning huquqlarini himoya qilish, balki mamlakatda adolat, tenglik va iqtisodiy rivojlanishga hissa qo`shadi. Milliy qonunchilikni takomillashtirish, jamiyatda ayollarning huquqlarini himoya qilish va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishini ta`minlash uchun xalqaro tajribalar va metodlarni qo`llash zarur. Bu jarayonlar nafaqat ayollarni qo`llab-quvvatlashga, balki butun jamiyatning barqarorligini ta`minlashga xizmat qiladi.

Xotin-qizlar huquqlariga davlat darajasida muhim e`tibor qaratilib, hukumat tomonidan ularga bir qancha yengilliklar berish, ta`limiga va erkinliklariga muhim nazar solish, sudlar mustaqilligini va adolatliligini ta`minlash zarur. Har bir oilada dunyoga kelgan qiz farzandga bir buyum sifatida emas, inson sifatida qabul qilishlarining o`ziyoq ayollar huquqlarining mustahkamlanishida eng muhim qadam hisoblanadi. Albatta, mazkur islohotlarning amalga oshishida har bir shaxsning o`z dunyoqarashi va tafakkurining kengayishi hamda oilasida berilgan tarbiya muhim poydevor sifatida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan manbalar ro`yxati:

1. Seneca Falls Konvensiyasi;
2. Xalqaro mehnat tashkilotining Ishlayotgan erkaklar va ayollar uchun teng munosabatlar va teng imkoniyatlar: oilaviy majburiyatlarga ega xodimlar to`g`risidagi 156-sonli Konvensiyasi;
3. Xalqaro ayollarni kamsitishning barcha shakllariga qarshi konvensiyasi (CEDAW, 1979);
4. BMTning Xalqaro fuqarolik va siyosiy huquqlar to`g`risidagi pakt;



5. BMTning Xalqaro iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi pakti;
6. BMTning Ayollarga nisbatan zo'ravonlikni tugatish to'g'risidagi Deklaratsiyasi;
7. Pekin deklaratsiyasi;
8. "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi 561-sonli O`RQ;
9. "Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 829-sonli O`RQ;
10. "Avtomototransport vositalari va shahar elektr transporti vositalari haydovchilarini tayyorlash hamda qayta tayyorlash bo'yicha nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatish faoliyatini litsenziyalash tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 408-sonli VMQ;
11. Maqola "Women as Wives: How Uzbekistan's Justice System Fails to Serve Women", Niginakhon Saida;
12. Ayollar huquqlari faoli: "Muammo qonunlarda emas, muammoni tan olmaslikda".
Kun.uz